




Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-sentabr)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9886,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 114,7 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,1 %) ni tashkil etdi.



B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining - 16,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 2,9 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish sanoatining – 6,4 % ga, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining-25,9 % ga kamayganligi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,7 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Shagʻal , ming t.	0,0	0,0	0,0




Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8313,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,1 % ini tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da






O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida - 2,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,4 % (5,5 %), o'rta-quyi texnologiyali - 13,7 % (11,8 %) va quyi texnologiyalisi - 78,4 % (80,0 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali

O'rta-yuqori texnologiyali

O'rta-quyi texnologiyali

Quyi texnologiyali


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 38,5 % (2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 22,6 % (2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,7 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,2 % (2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 90,1 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,3 % (2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 64,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,6 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati, % da

2021-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 35,7 ming tonna paxta tolasi (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,0 martaga o'sgan), 47,0 ming tonna omuxta yem (0,2 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
Yumshoq bug'doy va spelta uni

Paxta tolasi

Omuxta yem

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming tonna	12,1	35,7	23,6
Aroq – ming litr 100 % spirt	249,2	0	-249,2
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	0	0	0
Vino, ming litr	441,6	0	-441,6
Un, ming tonna	96,8	94,1	-2,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	11,2	8,6	-2,6



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1412,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (14,3 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,9 % ga ortganligi kuzatildi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I- IX oylar, % da)






Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	3723,0	4969,6	1246,6
Issqlik energiyasi, ming gkal	61,2	54,9	-9,4



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 113,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi
(yil boshidan I- IX oylar, % da)
2020-yil % da

2021- yil % da


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	35,0	59,7	24,7
Oqava suvlarni shlami, mlrd.so'm	3,7	8,7	5,0
Shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	18,8	17,8	-1,0
To'qimachilik chiqindilari, tonna	3,0	34,0	31,0
Xavfsiz metall chiqindilari, ming.t	0,0	0,0	0,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 70,3 % ga, oqava suvlarni shlami 2,4 martaga ortganligi, hamda shahar xo'jaligining qayta ishlanishga yaroqli havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 5,5 % ga kamayganligi kuzatildi.


Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5519,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 120,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 55,8 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 46,0 % ni, shuningdek, Namangan tumani 8,3 % ni, To'raqo'rg'on tumani 7,8 % ni, Kosobsoy tumani 6,8 % ni, Chust tumani 6,3 % ni, Uchqo'rg'on tumani 4,9 % ni hamda Pop tumani 3,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chust (1,8 marta), Kosonsoy (140,9 %), To'raqo'rg'on (153,5 %), Namangan shahar (122,3 %), Chortoq (133,1%) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida**

	<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>	
	2 546,2	46,0	122,3	Namangan sh.		428,4	7,8	153,5
						To'raqo'rg'on		
	220,4	4,0	66,3	Mingbuloq		229,7	4,2	138,9
						Uychi		
	373,2	6,8	140,9	Kosonsoy		269,3	4,9	101,9
						Uchqo'rg'on		
	460,7	8,3	98,4	Namangan		193,5	3,5	133,1
						Chortoq		
	86,4	1,6	111,7	Norin		350,2	6,3	184,1
						Chust		
	203,3	3,7	101,6	Pop		158,3	2,9	125,9
						Yangiqo'rg'on		

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 35,4 % ni, shuningdek, Namangan tumani 13,6 % ni, To'raqo'rg'on tumani 12,6 % ni hamda Kosonsoy tumani 10,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Chust (2,1 marta), To'raqo'rg'on (167,0 %), Kosonsoy (145,2 %) hamda Pop (139,3 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida**

	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	1602,6	35,4	119,1		386,9	12,6	167,0
Namangan sh.				To'qaqo'rg'on			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	172,7	4,5	55,4		115,7	2,7	85,8
Mingbuloq				Uychi			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	333,5	10,5	145,2		81,0	2,7	86,6
Kosonsoy				Uchqo'rg'on			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	246,1	13,6	92,5		86,4	1,3	102,7
Namangan				Chortoq			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	45,5	0,9	105,0		284,2	11,1	210,1
Norin				Chust			
	<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>		<i>Mlrd. so'm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>O'sishi % da</i>
	95,2	2,7	139,3		91,1	2,0	119,5
Pop				Yangiqo'rg'on			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 48,5 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 9,8 % ni, Namangan tumani esa 10,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumani (229,2 %), Uychi tumani (160,9 %) hamda Chortoq tumanida (174,9 %) qayd etildi.


Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
Namangan sh.	943,6	48,5	128,3	To'qaqo'rg'on	41,5	2,0	87,3
Mingbuloq	47,7	1,8	229,2	Uychi	114,0	4,8	160,9
Kosonsoy	39,7	2,1	112,5	Uchqo'rg'on	188,3	9,8	110,3
Namangan	214,6	10,7	106,2	Chortoq	107,1	4,5	174,9
Norin	40,9	1,6	120,3	Chust	66,0	3,2	120,1
Pop	108,1	6,6	82,1	Yangiqo'rg'on	67,2	4,4	135,8


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2380,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 24,1 % ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida**

	Mlrd. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	Viloyat									
	3 969,0	40,1	111,3		1 654,4	16,7	123,6	Namangan sh		
	409,7	4,1	102,5		675,5	6,8	107,2	Mingbuloq		
	388,3	3,9	118,0		621,8	6,3	102,2	Kosonsoy		
	599,9	6,1	103,8		211,2	2,1	104,0	Namangan		
	359,7	3,6	107,3		518,2	5,2	124,6	Norin		
	312,0	3,2	103,6		167,1	1,7	113,8	Pop		
								Chust		
								Uchqo'rg'on		
								Chortoq		
								Yangiqo'rg'on		




**Hududlar kesimida ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida Chust (2020-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan


124,6 %), To'raqo'rg'on (123,6 %), Kosonsoy (118,0 %), Yangiqo'rg'on (113,6 %) hamda Namangan (111,3 %) shaharlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da

Viloyat jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,1 % i) hamda To'raqo'rg'on (16,7 %), Uychi (6,8 %), Uchqo'rg'on (6,3 %) va Namangan (6,1 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on (1,7 %) hamda Chortoq (2,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (7193,0 ming so'm), Namangan shahrida (6097,8 ming so'm), Uchqo'rg'on (3533,9 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3420,1 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Bu borada eng past ko'rsatkich Yangiqo'rg'on (747,3 ming so'm), Chortoq (1037,0 ming so'm), Pop (1391,7 ming so'm) va Kosonsoy (1809,6 ming so'm) tumanlarida ko'rsatilmoqda.



**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga to'g'ri
keladigan sanoat mahsulotlari
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 420,1	1 909,4
Viloyat		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	6 097,8	3 911,8
Namangan sh		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	7 193,0	1 862,6
To'raqo'rg'on		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 165,6	1 703,6
Mingbuloq		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 087,2	1 049,8
Uychi		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 809,6	1 739,3
Kosonsoy		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 533,9	1 530,8
Uchqo'rg'o'n		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 309,8	2 540,9
Namangan		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 037,0	949,8
Chortoq		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 149,8	516,7
Norin		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 911,6	1 291,6
Chust		



	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 391,7	907,0
Pop		

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	747,3	707,8
Yangiqo'rg'on		



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4759,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,1 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Uychi (75,5 %) va Kosonsoy (69,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyat hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng kichkina ulush Uchqo'rg'on (15,0 %), To'raqo'rg'on (16,1 %), Mingbuloq (36,9 %) va Chust (39,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 7467 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2827 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,9 % i) Namangan shahriga, 579 tasi (7,8 %) Uychi tumaniga, 568 tasi (7,6 %) Chust tumaniga, 554 tasi (7,4 %) Kosonsoy tumaniga, 544 tasi (7,3 %) Namangan tumaniga, 487 tasi (6,5 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1360 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 372 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 27,4 %) Namangan shahrida, 124 tasi (9,1 %) Norin tumanida, 108 tasi (7,9 %) Chust tumanida, 106 tasi (7,8 %)

Namangan tumanida, 103 tasi (7,6 %) To'raqo'rg'on tumanida hamda 103 tasi (7,6 %) Uychi tumanida tashkil etildi.



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Namangan shahar (2 827 ta), Uychi (579 ta), Chust (568 ta), Kosonsoy (554 ta), Namangan (544 ta), To'raqo'rg'on (487 ta) tumanlari qayd etildi.



2021- yilning 1-oktabr holatiga ko'ra viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 6 taligida Mingbuloq (214 ta), Pop (299 ta), Chortoq (322 ta), Yangiqo'rg'on (332 ta), Uchqo'rg'on (347 ta) hamda Norin (394 ta) tumanlari qayd etildi.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z

ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 109 ta loyiha bo'yicha 395,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 7 706,3 ming. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-sentabr oylarida 654 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 204 taga ko'paydi. Shu bilan birga, 2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining 5,0 martaga ortganligi kuzatildi.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining
asosiy ko'rsatkichlari**

	2020- yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	39	109
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	28	64
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	223,7	395,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>ming. AQSh dollar</i>	1 542,6	7 706,3
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	450	654

Sanoat statistikasi
bo'limi
Tel.: (69) 227-84-80